



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

NUTQSIZ MULOQOT: NOVERBAL VOSITALAR VA JESTLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Mavlanova Nargiza Turayevna
Qarshi davlat universiteti, o'qituvchi
Nu'monova Sevinch
Qarshi davlat universiteti, talaba

Annotatsiya

Mazkur maqolada nonverbal muloqotning nazariy asoslari, uning asosiy turlari (mimika, jest, proksemika, taktil aloqa, paralingvistik elementlar) hamda raqamli kommunikatsiyada keng qo'llanilayotgan emoji, stiker, GIF va kulgichlarning funksional-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida an'anaviy nonverbal vositalar biologik va psixologik asosga egaligi, emojilar esa texnologik va ramziy xarakter kasb etishi aniqlangan. Shuningdek, madaniyatlararo tafovutlarning nonverbal vositalarni talqin qilishdagi o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: nonverbal muloqot, kommunikatsiya, jest, mimika, proksemika, emoji, stiker, paralingvistika, madaniyatlararo aloqa.

НЕВЕРБАЛЬНАЯ КОММУНИКАЦИЯ: СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ И ЖЕСТОВ

Мавланова Наргиза Тураевна
Каршинский государственный университет, преподаватель
Нумонова Севинч
Каршинский государственный университет, студентка

Аннотация

В статье анализируются теоретические основы невербальной коммуникации, её основные виды (мимика, жесты, проксемика, тактильная коммуникация, паралингвистические элементы), а также функционально-стилистические особенности эмодзи, стикеров и GIF в цифровом общении. В ходе исследования выявлено, что традиционные невербальные средства имеют биологическую и психологическую основу, тогда как эмодзи обладают технологической и символической природой. Освещается роль межкультурных различий в интерпретации невербальных сигналов.

Ключевые слова: невербальная коммуникация, жест, мимика, проксемика, эмодзи, паралингвистика, межкультурная коммуникация.

NONVERBAL COMMUNICATION: STYLISTIC FEATURES OF NONVERBAL MEANS AND GESTURES

Mavlanova Nargiza Turayevna
Karshi State University, Lecturer
Nu'monova Sevinch
Karshi State University, student

Abstract

This article examines the theoretical foundations of nonverbal communication and its main types (facial expressions, gestures, proxemics, tactile communication, and paralinguistic elements), as well as the functional and stylistic features of emojis, stickers, and GIFs in digital

discourse. The study reveals that traditional nonverbal means are biologically and psychologically grounded, whereas emojis represent technological and symbolic constructs. The role of intercultural differences in interpreting nonverbal signals is also discussed.

Keywords: nonverbal communication, gesture, facial expression, proxemics, emoji, paralinguistics, intercultural communication.

Insoniyat tarixida muloqot dastlab noverbal shaklda shakllangan. Noverbal kommunikatsiya shaxslarning o‘zaro ta’siri va emotsional holatini ifodalovchi, til vositasiz amalga oshadigan aloqa shaklidir [2]. U til paydo bo‘lishidan oldin mavjud bo‘lgan va insonning biologik hamda psixologik mexanizmlariga tayanadi.

Zamonaviy jamiyatda esa noverbal vositalar raqamli makonga ko‘chdi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda emoji, stiker va GIFlar keng qo‘llanilib, qisqa va emotsional ifoda vositasiga aylandi. Shu sababli mazkur maqolada an’anaviy noverbal vositalar va raqamli belgilar tizimi o‘rtasidagi uslubiy hamda funksional tafovutlar o‘rganiladi.

2. Metodlar

Tadqiqotda **tavsifiy-tahliliy metod** noverbal va paralingvistik vositalarning tasnifi va xususiyatlarini aniqlash va qisman qiyosiy metod madaniyatlararo uchraydigan farqlar, nonverbal vositalarning pragmatik jihatdan turli kontekstlarda turlicha konnotativ ma’no ifodalashini taqqoslashda foydalanildi.

Natija

Tadqiqot natijasida nonverbal vositalarning o‘zbek va ingliz tillaridagi yozma va onlayn muloqotdagi tutgan o‘rni tahlil qilindi va har ikki til madaniyada ham kommunikativ jihatdan o‘ziga xos bo‘lgan vazifalarni bajarishi aniqlandi.

Muhokama

Jamiyatdagi har bir shaxs — xoh u oliy toifali xodim bo‘lsin, xoh ma’lum bir hunar sohibi o‘z nutqi orqali atrofida qilargalarga ta’sir etishni va ularni o‘ziga xayrixoh sifatida ergashtirishni istaydi. Ushbu jarayonda esa, albatta, nutqning jozibasi va ta’sirchanligi muhimdir. Bu o‘rinda bizga insoniyat paydo bo‘lganidan buyon muloqotning ma’lum bir tizimi bo‘lib kelgan — noverbal muloqot va uning bir turi bo‘lgan jestlar hamda texnologiyalar asrida yuzaga kelgan: emoji, stiker, kulgich, gif kabi vositalar yordam beradi.

“Noverbal (so‘zsiz, nutqsiz) kommunikatsiya muloqot qilayotgan individlarning bir-biriga o‘zaro ta’siri va emotsional holati haqida signal beruvchi muloqot shaklidir. Noverbal muloqot kishilarning eng qadimgi muloqot tizimidan biri bo‘lib, ular tildan oldin rivojlangan. Noverbal vositalar yordamida qandaydir sababga ko‘ra so‘z orqali berib bo‘lmaydigan eng nozik tuyg‘ular, munosabatlar ifodalangan” [2].

“Ijtimoiy o‘zaro ta’sir o‘z ichiga noverbal muloqot — axborot va tuyg‘ularni yuz ifodasi, imo-ishora va harakatlar yordamida almashish shaklini qamrab oladi. Noverbal muloqotga ba’zan “Badan tili” sifatida qarashadi, biroq bu qarash xato bo‘lib, biz noverbal signallardan aytilganlarni ta’kidlash, kuchaytirish yoki kengaytirish maqsadida foydalanamiz” [7,115].

Verbal (nutqli) muloqot bilan noverbal (nutqsiz) muloqot solishtirilganda, noverbal muloqotning ta’sir kuchi yuqoriligi aniqlangan. Qadimda xabarlarini uzatishda shartli signallar: gulxanlar, chiroqlar, har xil ovoz chiqaruvchi asboblari qo‘llanilgan. Ular ham noverbal kommunikatsiyaning bir ko‘rinishi sanaladi, ya’ni nutq vositasiz axborot almashinish.

Hozirgi kunga kelib, noverbal muloqot shakli texnik qurilmalar orasidagi yozishmalarga ham ko‘chgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar va messengerlarda siz-u biz keng tarzda foydalanayotgan smaylik turlari noverbal muloqot ifoda vositasidir. Fikrni nutqsiz, lekin qisqa va ta’sirchan ifodalashga yordam beruvchi vositalarning 4turidan foydalanish imkoni mavjud. Bular: emoji, stiker, gif, kulgich.

Bugungi kunda raqamli aloqa uzundan uzun jummalarni yozishdan ancha uzoqlashadi. Har qanday ijtimoiy tarmoqqa qarab, qanchadan qancha gullar, qalblar, hayvonlar, oziq-ovqat va boshqa tasvirdagi belgilarni ko'rish mumkin. Ular — **emoji**.

Stiker — multfilmlar va yaponcha tabassumga o'xshash “emojilar” aralashmasi bo'lgan his-tuyg'u va harakatni ifodalovchi qahramonning batafsil tasviri.

GIF — rasmlarni almashtirish formati. Odatda, ular qisqa, takrorlanuvchi animatsiyalarni ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Kulgichlar (smaylik) matematik shakllar, tilshunoslikdagi punktuatsion ishoralar va yana turli xil belgilar tizimidan tashkil topgan va bu belgilar qorishuvidan o'xshatmalar hosil qilingan.

Umumiy qilib aytganda, emoji oddiy va tez ifoda shakli bo'lsa, stikerlar va giflar ko'proq vizual va dramatik ta'sir ko'rsatadi. Matnda kulgich yuzlari va tabassumlardan foydalanish xabarlarini yanada qiziqarliroq qiladi.

Masalan,  (kulib turgan yuz),  (qizil yurak),  (qarsak)...

“Jestlar insonlar o'rtasidagi noverbal aloqa vositasi bo'lib, til bilan uyg'un ravishda ishlaydi yoki uni to'ldiradi. Ular nafaqat signal va ishora, balki fikr va hissiyot, niyat va ijtimoiy maqomlarni ifodalovchi vositaga aylangan” [8].

D. MakNill[10,] jestlarni 4 turga bo'ladi:

1) **Ikonik tur** gapirilayotgan fikrga bevosita aloqador bo'ladi: “Smit o'ng qo'li bilan g'oyatda muhim **daliliy ashyoni** changallagan edi”, — deb Xopkins cho'ntagidan qog'oz paket chiqarib, undan **tilla bandli pensne** oldi” [9, 48].

2) **Metaforik tur** mavhum tushunchalarni ifodalaydi: “Xolms kalitni qo'liga oldi, so'ng professorning **yuziga tikilib**, yana uni **qaytarib berdi**” [9, B.58].

3) **Diektik tur** jestlar yo'nalishini aniqlaydi: a) “Xolms **“attang” degandek** tilini taqillatib qo'ydi”; b) “Chehrasidan **ranjigani** sezilib turardi” [9, B.47].

Bu ikki gapda ham norozilik ma'nosi bor.

4) **Ritmik tur** esa nutq urg'usini aniqlaydi. Jestlardagi nutq urg'usi bevosita harakatdagi ta'kidga ishora qiladi. Masalan, kam teginuvchi xalqlar bo'lgan aksariyat chet elliklar salom-alik jarayonida shunchaki “salom” so'zining o'zi bilan kifoyalanishadi, xolos. O'zbeklar esa yaqin insonlari va tengqurlari bilan ko'rishganda qo'l siqishib, o'zlaridan kattalar bilan salomlashganda qo'llarini ko'ksilariga qo'yib salom berishadi. Bu o'zaro hurmat belgisi va xuddi shu — qo'lini ko'ksiga qo'yib salomlashish faqat o'zbeklargagina xos holatdir. Hindistonda salomlashish ikki qo'lini birlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu odat ham faqat hindlar uchundir.

Erin Meyer, Business Professor in Dubai

“A while ago I was in Dubai and one of my students, my Emirati students, was driving me home after a session and the car stopped at a light and she rolled down the window and she started shouting at someone outside of the window. This guy was crossing the street with a big box of cloth. And he started shouting back and she opened up the door and they started gesticulating and shouting at one another. And I thought, wow, they're having a huge fight, I thought maybe he was going to hit her. And she got back in the car and I said, well, what were you fighting about? And she said, “Oh, no, no we weren't fighting, he was giving me directions to your hotel”. And I thought that was a great example of how someone from another culture may misperceive or misunderstand something as a fight when in fact they were just being emotionally expressive”.

“Bir oz oldin men Dubayda edim va amirlik talabalarimdan biri mashg'ulotdan so'ng meni uyimga olib borayotgan edi, mashina yorug'likda to'xtadi va u oynani pastga tushirib, tashqaridagi kimgadir baqira boshladi. Bu yigit matoli katta quti bilan ko'chadan o'tayotgandi.

U ham javob qaytara boshladi. Talabam ham mashina eshigini ochdi va ular imo-ishora qilib, bir-birlariga baqirishdi. Men “Voy, ular katta janjal qilishyapti”, deb o‘yladim, “ehtimol, u uni urishi mumkin”. U yana mashinaga o‘tirdi va men so‘radim: “Nima haqida jang qildingiz?”. U dedi: “Yo‘q, yo‘q, biz urushmadik. U menga mehmonxona yo‘lini ko‘rsatdi”. Men o‘yladimki, boshqa madaniyatdagi kimdir noto‘g‘ri tushunadigan vaziyat bo‘lgandi.

Aslida esa bu jestlar yordamidagi suhbatdir.

Muloqotda noverbal ifodalardan foydalanishning ham bir necha usuli mavjud:

1. “Mimika” — yuz ifodalarini ishlatish usuli. Har qanday mavzuda suhbat qurmaylik, albatta, suhbatdoshimizning ko‘zlariga qaraymiz va ko‘zlarida uning qalbida kechayotgan butun bir ichki olami haqidagi bilimlarni anglashimiz mumkin bo‘ladi. Chunki shaxs o‘z ko‘zida qalbini ifodalaydi. Qalb esa ko‘z bilan uzviy aloqador bo‘lgani sababli, ko‘ngilda aks etgan tushunchalar ko‘zda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari muloqot jarayonida har bir shaxs muayyan tushunchalarni ko‘zlari orqaligina yetkazib bera olishlari mumkin. Bu qarashlar ba’zi hollarda verbal vositalarga o‘rin qoldirmaydi.

Ayrim olimlar og‘izni ham turli mimika amalga oshirish vositasi sifatida qarashadi. Bunga misol sifatida kishilar tabassumini keltirish mumkin. E’tibor bersak, shaxslar labidagi tabassum xursandchilik, samimiylik, pisand qilmaslik kabi bir qancha ma’nolarni ifodalaydi. Yuz ifodalarining o‘zgarib borishi shaxsning suhbat mavzusiga munosabatini belgilaydi. Kommunikatsiya jarayonida kommunikantlarning qoshlari ular g‘azablenganda, muayyan narsalardan qo‘rquvga tushganlarida, salomlashish jarayonlarida qoshlar yuqoriga ko‘tariladi” [1].

Arastu yuz ifodalari muayyan tushunchalarni aks ettirishi haqida o‘z qarashlarini bildiradi va ularni anglashga oid fiziognomiya yo‘nalishini aniqlaganligi manbalarda qayd etilgan. Ko‘plab psixologlar va noverbal ifodalarni tadqiq etuvchi olimlar shaxsning yuz ifodalariga qarab, uning fe’l-atvoriga baho berish mumkin, deb hisoblashadi. Ayrimlarning labida har qanday holatda ham tabassum mavjud bo‘ladi, bu esa shaxsning quvnoq tabiatliligidan dalolat beradi. Ba’zi shaxslar bo‘lsa, yuz qiyofalaridan o‘ta jiddiy ekanliklarini namoyon etib turadilar.

2. Tana holati. Suhbat jarayonida kommunikantlarning holatlari muayyan darajada so‘zlovchi va tinglovchining imkoniyatlarini belgilaydi. “Jumladan, erkak va ayol suhbatida ayolning o‘zini erkin tutishi va tana holatlarida ham buni aks ettirishi erkakka nisbatan ishonchni ifodalaydi. E’tibor qaratsak, stressli holatlarda inson harakatlari hayvon harakatlaridan farq qilmasligi mumkin. Ayrim jinoyatchilarning harakatlari hayvonlarning boshqa bir yirtqich hayvon oldida amalga oshiradigan xatti-harakatiga o‘xshaydi. Bu holatda jinoyatchi ko‘pincha aql bilan emas, tabiiy instinktlar yordamida harakatlanadi” [1].

Har bir kommunikant muloqotga kirishar ekan, suhbatdoshining tashqi ko‘rinishi, noverbal harakatlari va o‘zini tutishiga alohida e’tibor qaratadi. Ya’ni shaxs tana harakatlari bilan muloqotning o‘zi uchun qanchalik dolzarb ekanligini ifodalab turadi. Tana holatlari va shaxsning o‘zini tutishi madaniy kelib chiqish nuqtayi nazaridan farqlanadi. Misol uchun, amerikaliklar o‘zaro yonma-yon turib suhbatlashishni afzal deb bilsalar, sharq mamlakatlarida bu holat boshqacha ifodalar kasb etadi, ba’zi hollarda hurmatsizlik deb ham qaralish ehtimoli bor.

3. Proksemika — makondan foydalanish usuli. Proksemikada asosiy e’tibor masofaga qaratiladi. Suhbatdoshlar orasidagi masofa kommunikantlarning yoshi, jinsi, gender xususiyatlari, ular orasidagi tanishlik, yaqinlik darajasi bilan bog‘liq. Masofaning darajasi ularning bir-birining hayotida tutgan o‘rni va maqsadlari bilan ham uzviy aloqador. Masalan: shaxslar orasidagi sevgi, do‘stlik, yaxshi niyat, yovuzlik, adolat kabi jihatlar masofaviy yaqinlik darajasini belgilaydi” [2].

Odatda, yaqin bo‘lmagan tanishlar qo‘l berib, yaqinliklarini ifodalashlari mumkin. Kishilar o‘rtasida yaqinlashish ortib borgani sayin masofalar qisqarib boradi. Proksemikadagi

madaniy farqlanishlar, asosan, siyosatchilar va ishbilarmonlar oʻrtasida yuz berishi mumkin.

4. Taktik aloqa: teginish, silash va h.k. Muloqotning taktik elementlaridan foydalanish maqom va muloqotchilar oʻrtasidagi doʻstlik darajasi bilan bogʻliq. Bu usul koʻproq insoniyat jamiyatida — ayollar va bolalarda kuzatiladi: qoʻltiq lab yurish va quchoqlash, yelkaga qoʻlni urish, yelka va yonoqlarni silash... Bu jihatlarda madaniyatlararo sezilarli farqlar ham mavjud. “Xitoyliklar va inglizlar eng kam “teginuvchi” xalqlar hisoblanadilar, shuning uchun bu xalqlar vakiliga nisbatan notoʻgʻri ishlatilgan taktik harakat haqorat sifatida ham qabul qilinishi mumkin” [3].

Oʻzbek mentalitetida bolalarni suhbat jarayonida quchoqlashlari, oʻpishlari, bosh va yelka qismlarini silashlari mumkin. Yuqoridagi harakatlar qariyalar tomonidan koʻproq amalga oshiriladi.

5. “Paralingvistik elementlar. Paralingvistik elementlar — toʻgʻri imo-ishoralardan farqli oʻlaroq, nutqqa hamroh boʻladi, muloqotning hissiy tomonini toʻldiradi: hayratda hushtak chalish, umidsizlikda xoʻrsinish...

Paralingvistik vositalar suhbatdoshning bir lahzalik holatini (xotirjamlik, hayajon, ishonch, charchoq va boshqalar) ifodalaydi” [1].

6. Kiyinish va tashqi koʻrinish. Kiyim va tashqi koʻrinish (soch turmagi, zargarlik buyumlari, kosmetikalar) muloqot qiluvchining shaxsiyati, uning ijtimoiy mavqeyi, roli, kasbi kabi shaxsiy xoslanish va xususiyatlarni ifodalaydi. Eʼtibor bersak, shaxsning kiyinishi uning muayyan xususiyatlari haqida xulosalar chiqarishimizga yordam beradi. Jumladan, suhbatdoshimizning din peshvosi, uy bekasi, oʻqituvchi, tadbirkor ekanligi uning kiyinishida ham namoyon boʻladi.

Noverbal muloqot va emojilar — ikkisi ham hissiyot ifodalashda muhim, ammo orasidagi tafovutlar ham anchagina.

Farqli jihatlar:

1. Noverbal muloqot — biologik ildizga ega, yuzma-yuz muloqotda ishlatiladi, butun tananing signallarini oʻz ichiga oladi, xabarning mazmuni va his-tuygʻusini birga yetkazadi, koʻpincha ongli nazoratdan tashqarida yuz beradi.

Emojilar — texnologik mahsulot, faqat raqamli va yozma muloqot maydonida ishlatiladi, cheklangan, ramziy maʼno kasb etadi, kontekstga qarab maʼnosi oʻzgarib turadi.

Noverbal muloqotning vazifasi:

I. His-tuygʻu ifodalash (baxt, gʻazab...):

“Ichkariga quvonchli tabassum-la Vernon amaki kirib keldi” [6, B. 26]. Noverbal muloqotning mimika turiga mansub boʻlgan tabassum orqali **baxt** ifodalangan.

II. Munosabat va mavqeni koʻrsatish (hurmat, chetlanish...):

1) “Biroq haqiqatan ham uning tirnoqlari meni oʻziga jalb etdi va Endiga hurmat bilan qaray boshladim” [5, B. 11]. Tashqi koʻrinish **hurmatga** sazovor aylagan.

2) “Lekin men “miq” etmasdan tomga gudron yoyishda davom etdim. Boshqalar singari shirin jonimni oʻylashim kerak” [5, B. 52]. **Chetlanish.**

III. Maʼlumotni mustahkamlash yoki ziddiyat yaratish (bosh qimirlatish “ha” yoki “yoʻq”):

“Senga ham shunga oʻxshash shartnomalarni taklif qilishgandir, axir. Men bosh irgʻadim” [5, B. 65]. **Tasdiqlash.**

IV. Tartibni boshqarish (suhbatni boshlash/ tugatish, eʼtiborni jalb qilish):

1) “Endi Dyufresn qoʻlini choʻzdi, men soʻrashdim” [5, B. 27]. Xatti-harakatlar bilan **suhbatni boshlash.**

2) “Endi ikkalamiz bitim tuzib, qoʻl siqishar ekanmiz, bir-birimizga siniq tabassum bilan qarab qoldik” [5, 94]. **Suhbatni tugatish.**

Emojilarning vazifasi:

I. Hissiyot va kayfiyatni qo'shimcha ifodalash:



II. Yumshatish belgisi bo'lib xizmat qiladi.

III. Tez ekvivalent yaratish.

IV. Soddalashtirish va emotsional to'ldirish.

Xulosa

Noverbal muloqot turi aytilmoqchi bo'lgan fikrning imo-ishora, xatti-harakat, ko'z va yuzlardagi ifodalar yordamida boshqa shaxslarga tez va osonroq yetib borishini ta'minlaydi. Jestlar esa insonning nutqini to'ldiruvchi yoki uning o'rnini bosuvchi harakatlardir. Bu ikki turdagi muloqot shaklidan ham tejamkorlik bilan foydalanish zarur. Zero, noverbal vositalardan noo'rin foydalanish madaniyatlararo tushunmovchiliklarni, Jestlardan ortiqcha foydalanish chalkashliklarni keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Doyle A. C. Sherlok Xolms va doktor Uotsonning sarguzashtlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 304 b.
2. Ergasheva S. Jestlarning evolyutsiyasi va integratsiyasi. – Toshkent: Uzbekistan, 2025. – 112 b.
3. Giddens A. Sotsiologiya. – Toshkent: Sharq, 2015. – 640 b.
4. McNeill D. Hand and Mind: What Gestures Reveal about Thought. – Chicago: University of Chicago Press, 1992. – 416 p.
5. Shoyimova Sh. M. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 224 b.
6. Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya fanidan o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Qarshi davlat universiteti nashriyoti, 2020. – 150 b.
7. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 198 b.
8. Zaripov R. Shaxslararo va madaniyatlararo kommunikatsiya. – Toshkent: Tafakkur, 2022. – 256 b.